



TA'LIM TIZIMIDAGI NIZOLARNI SAMARALI HAL ETISHNING PSIXOLOGIK YO'LLARI

Rejabboyeva Umida Abdulxamidovna

Namangan shaxar MMTBga 3-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri - nizo sanaladi. Nizo - qarama-qarshi, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan kuchlar to'qnashuvi, ikki yoki undan ko'p taraflar orasida o'zaro kelishuvning yo'qligini, manfaatlar to'qnashuvini ifodalovchi ziddiyat.

Pedagogik nizo bu - pedagog va talaba, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o'rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi, o'zaro qarama-qarshilik o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi kelishmovchilik, tortishuv va mojarodir. O'qituvchi har tomonlama tarbiyalangan, aqliy, ahloqiy, ma'naviy bo'lib, bilim doirasi keng, nutqi ravon, pedagogik bilim mahorat egasi bo'lishi lozim. O'qituvchining pedagogik bilim mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. O'qituvchi bilan o'quvchi, talabalar o'rtasida o'zaro jonli til, fikr olishuv, samimiy munosabat, hurmat izzat, asosiy maqsadga erishishga hamkorlik lozim. Pedagog o'z guruhida nechta bola bo'lsa, ularning har birining xarakterini, oilaviy muhitini, psixikasini, xulqi-atvorini, bilim saviyasini yutug'i va kamchiliklarini o'rganib, keyin shunga qarab har bir bolaga qanday yondashishi lozimligini bilishi kerak. Guruxlarda har- xil toifali bolalar uchraydi. Ularning har – biri o'z xarakteriga ega bo'ladi. Pedagog har bir bolani o'rganib chiqishi, ular bilan yakka (indivial) holda yondashib tanishib chiqishi kerak. Ayrim bolalar qobiliyatli, har tomonlama etuk faol bo'lishiga, ayrimlarining qobiliyati sust, layoqatsiz, ayrimlari serjahil bo'ladilar. Guruh rahbarining asosiy vazifasi o'ziga birlashtirilgan guruhdagi bolalarga tarbiyaviy ta'sirini tashkil etishi lozim. Sinf rahbari



o'quvchilarga kompleks yondashishi lozim. Sinf rahbari ota-onalar bilan hamkorlikda bo'lib, bolalarning bilim darajasi qay darajada ekanini, ularning axloq- odobi, yutuqlari va kamchiliklari ularning tarbiyasi bilan shug'ullanadi. O'qituvchi tomonidan shularga e'tibor berilsa, pedagog bilan o'quvchi o'rtasida nizo paydo bo'lishni bartaraf etadi. O'quvchi-bilan o'qituvchi o'rtasida kontakt ya'ni masofa bo'lishi lozim. O'quvchi o'qituvchisiga nisbatan hurmat, ehtiromli bo'lishi, kerak. O'qituvchi avvalo o'ziga nisbatan talabchan bo'lmog'i kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qo'yayotgan talablari o'rinli, samarali bo'ladi. Pedagogning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i lozim. Shu bilan birgalikda o'qituvchi adolatli bo'lishi, o'qituvchining axloqiy fazilati hisoblansa, ikkinchi tomondan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sirini baholashning mezoni hisoblanadi. O'quvchining bilim saviyasini hamda xulqini baholashda ham o'qituvchidan adolatli bo'lish talab etiladi. O'qituvchi ma'suliyatli bo'lishi va uning zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash ma'suliyati yuklanadi. Pedagog mana shu yuqoridagilarga rioya qilib ish olib borgandagina o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida nizo paydo bo'lmaydi. Pedagogik nizo tushunchasi: Pedagogik nizo bu o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida muammolar tortishuvlar, kelishmovchiliklar bo'lib o'qituvchi shu muammolarni oldini olishi, unga yo'l qo'ymasligi, va shu muammolarni echimini topishi kerak. Pedagogik nizo bir qator belgilarga ega. Unga xos bo'lgan asosiy belgilar quyidagilardir: inqiroz; anglashilmovchilik; kutilmagan hodisa; zo'riqish; noqulaylik; ichki yoki tashqi xavotir; bartaraf etish qiyin bo'lgan qo'rquv. Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar: axborot omili; munosabat omili; hulq omili. Pedagogika nizoning echimi va uni boshqarish texnologiyasi: Muloqot pedagogik nizolarning echish va boshqarish usullari. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir. Masalan yuzma-yuz yoki texnik vositalar (telefon telegraf va shunga o'xshash vositalar) bilan amalga oshiriliadi. Oilada nizo muloqot ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin. O'zaro munosabatlarga kirishilganda nizoni yuzaga kelmasligini asosiy sabablari, o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, o'zaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim. Har qanday faoliyatdan zerikish, garchan mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan



charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma’naviy jihatdan rag‘batlantiriladilar. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy, qiyofasi, fazilatlarini, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning elementar funksiyasi suhbatdoshlarning o‘zaro bir-birini tushunishlarini ta’minlashdir. Pedagogik nizolarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tenglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o‘zaro mosligi, bir- birini to‘ldirishga bog‘liq ekan noto‘g‘ri tasavvurlardan bir shuki, odamni muomola yoki muloqatga o‘rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so‘zlardan foydalanib ta’sirchan gapirishcha o‘rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni-tinglash qobiliyatiga deyarli e’tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnechi “yaxshi suhbatdan - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi gapirishni biladigan esas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi. Pedagogik muloqot-O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatiga aytiladi. Pedagoglik jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomola -munosabatlar katta o‘rin egallaydi. O‘qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda bo‘ladi. O‘qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o‘quvchilarda u haqda sodir bo‘lgan fikr ham ta’lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir etishi, o‘qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o‘qituvchi foydasiga hal etiladi. O‘qituvchi obro‘sini saqlayman deb, kattalar ba’zan o‘quvchining qadr-qimmatini erga uradilar, o‘quvchidan kechirim surashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o‘qituvchining noto‘g‘ri hatti-harakati sabab bo‘lgan. O‘qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to‘g‘ri kelmaydi. Bolalar bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish lozim. Agar o‘qituvchi va o‘quvchi bir-birini tinglasa, o‘z- o‘zini ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko‘pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g‘oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. SHuning uchun ma’ruzachi professorning har bir chiqishi va ma’ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglasa,



bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi. Pedagogik nizolarda adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator yo‘l tutiladi. Ular orasida eng samarali yo‘llar quyidagilar sanaladi: 1. Nizoning ta’sir doirasini kengaytirmaslik. 2. Qulay echimlarni taklif qilish. 3. Man etilgan usullarni qo‘llamaslik, shakllardan foydalanmaslik. 4. SHikoyatlar sonini qisqartirish. 5. Ikkinchi darajali masalalarni ham uzviy ravishda hal qilib borish. 6. Nizoga kirishgan sub’ektlar shaxsini kamsitadigan so‘zlardan foydalanmaslik. Pedagogik nizo sub’ektlariga ko‘rsatiladigan pedagogik-psixologik yordam turlari: - Maslahat berish; - Axborotli yordam ko‘rsatish; - Tashxislash; - Amaliy treninglar uyushtirish. Axloqiy nizo-axloq ijtimoiy ong shakllaridan biridir, u muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi-shaxslarning bir-biriga, jamiyatga, xalq mulkiga, oilaga ishlab chiqarish vositalariga, muayyan tartibga solinadigan hatti harakatlarda tizimida ko‘rishimiz mumkin. Guruhlararo ziddiyatlar - odamning o‘rtasidagi yoki shaxslararo munosabatlar asosan guruh sharoitida shaxs ma’lum insonlar davrasida, guruhda jamoada bo‘lgan taqdirdagina ro‘y beradi. Guruhlararo ziddiyatlar guruh a’zolarida liderlarni ko‘rishimiz mumkin. Lederlar: rasmiy va norasmiy bo‘ladilar, rasmiy lider o‘qituvchi tomonidan tanlangan guruh staristasidir, norasmiy lider boshqa guruhdagi shaxslarni o‘ziga jalb qila oladigan boshqalarni o‘ziga tortadigan shaxsdir. Bunday holatlarda rasmiy va norasmiy rasmiy lider o‘rtasida nizo yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda har bir shaxs muommila madaniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim. Shaxs muloqotda bo‘lgani sari ular o‘rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari umumiylik va o‘xshashalik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘ladiki, ular bir-birini bir qarashda tushunadilar yoki yarmiga jumladan fikr ayon bo‘lib qoladigan bo‘lib qoladi. Ammo shunday muloqot tizimidagi teskari reaksiyalarni bir-biridan charchab gapiradigan gapining qolmasligi kabi vaziyatni ya’ni, shaxslar va shaxslararo ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.



Adabiyotlar:

1. Oila manfaatlarini ta’minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar. Davlat dasturi to’grisida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 yanvar 45– son qarori.
2. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T. “Ma’naviyat”. 1998
3. O‘tmish mutafakkirlarimiz ota – ona va farzandalar munosabatlar xususida. “Ma’rifat yog‘dusi” jur. № 3, 2000 y.
4. Ota ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarini o‘rganish metodikalari. Uslubiy qo‘llanma. T – 2001 y.